

## BADIIY ASARDA OBRAZ TUSHUNCHASI

Suyunova Maftuna Do'sqobil qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktoranti

[suyunova93@bk.ru](mailto:suyunova93@bk.ru)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada obraz tushunchasi va uning badiiy-adabiy asarda namoyon bo'lishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, badiiy asar keng va tor ma'noda qanday ishlatilinishini ham bilib olishimiz mumkin. Obrazlilik tushunchasi har bir badiiy asarga xosdir. Obrazsiz biz badiiy asarni tasavvur qila olmaymiz, chunki yozuvchilar samarali til va nutq shakllaridan foydalangan holda o'quvchilarning hissiy-ruhiy kechinmalariga ta'sir o'tkazadilar.

**Tayanch iboralar:** badiiy asar, obrazlilik, badiiy obraz, obyektiv, subyektiv, metafora, o'xshashlik, adabiy vosita.

Badiiy asarga quyidagicha ta'rif beriladi: "Adabiyot va san'atning voqe bo'lish va va yashash shakli, yaxlitlik kasb etgan obrazlar tizimi, badiiy muloqot kasb etgan obrazlar tizimi, badiiy muloqot vositasi"<sup>1</sup> demakdir. Shunday ekan, badiiy adabiyotni badiiy asarsiz tasvirlash mumkin emas, chunki badiiy asar adabiyot va san'atni yashash shakli hisoblanadi. Umuman olganda badiiy asar tushunchasi keng va tor ma'noda ishlatiladi. Keng ma'noda badiiy asar san'atning barcha turi xususan, musiqa, haykaltaroshlik, rassomchilik, kino, teatr va boshqa sohalarida mansub bo'lgan insonning go'zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy ruhiy faoliyati mahsuli sifatida yaralgan yangilikni anglatadi. Demak, bundan kelib chiqadiki, har qanday musiqa, haykal yoki rangtasvir asarlari, film yoki spektakllar ham badiiy asar sanaladi. Termini tor ma'noda qo'llanilishi esa badiiy adabiyotga mansub bo'lgan adabiy badiiy asardir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, adabiyotshunoslikda badiiy asarni obrazlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni jamlasak bitta xulosa kelib chiqadi: adabiyotga hayotdagi hamma (inson, narsa, buyum, hayvon, hodisa, predmet, o'simlik, ko'chma ma'nodagi so'zlar, iboralar, leksik resurslar; ifoda-tasvir vositalari – mubolag'a, kichraytirish, o'xshatish, omonim, sinonim, antonimlar; anafora,

<sup>1</sup> Adabiyotshunoslik lug'ati D.Quronov, Z.Mamajonov, M. Sheraliyeva, Toshkent «Akademnashr» 2013



epifora asindenton va shu kabilar) unsurlar kirar ekan, kirganda ham san'atkor ongi va qalbida jilovlanib, boyib, kattalashib, eng muhimi insonlashib va bir butunlik kasb etib muhurlanar ekan – ularning barchasini obraz deb yuritish qonuniyatdir. Shu fikrlarga qo'shimcha qilgan holda, mashhur rus adabiyotshunosi V.Ye.Xalizev o'zining "Теория литературы" asarida badiiy obraz uchun quyidagi ta'rifni keltiradi "Обращаясь к способам (средствам), с помощью которых литература и другие виды искусства, обладающие изобразительностью, осуществляют свою миссию, философы и ученые издавна пользуются термином «образ» (др.-гр. эйдос — облик, вид). В составе философии и психологии образы — это конкретные представления, т. е. отражение человеческим сознанием единичных предметов (явлений, фактов, событий) в их чувственно воспринимаемом облики."<sup>2</sup> Ya'ni, adabiyot va san'atning obrazlilikka ega bo'lgan barcha turlarining o'z vazifasini amalga oshirish usullari (vositalari)ga ishora qilib, faylasuflar va olimlar azaldan "obraz" (qadimgi yunoncha eidos — ko'rinish, tashqi ko'rinish) atamasini qo'llashgan. Falsafa va psixologiyaning bir qismi sifatida tasvirlar aniq tasavvurlardir, ya'ni, inson ongi tomonidan individual ob'ektlarni (voqealar, hodisalar, faktlar) ularning hissiy idrok etilgan ko'rinishida aks ettirishdir. Shunday ekan badiiy obraz san'atning eng muhim vositalaridan biri hisoblandi. Chunki san'atkor badiiy obraz orqali hayotni, undagi voqea-hodisalarni va ularga nisbatan hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda biz obrazni adabiyot va san'atning fikrlash shakli, usuli deb atashimiz mumkin. Badiiy obraz – hayot kabi murakkab, sermazmun. Adabiyotda hayotning hamma murakkabliklari, qirralari, munosabatlar majmui badiiy obrazda umumlashtiriladi, unda tashqi (ob'ektiv) va ichki (sub'ektiv) tomonlar mavjud. Yozuvchining his-tuyg'ulari, kechinmalari, rejaları manbai bo'lgan voqea-hodisalar, turli vaziyatlar, to'qnashuvlar badiiy obrazning tashqi (ob'ektiv) tomonidir. Badiiy qiyofa tashqi dunyoni inson ehtiyojlariga mutanosiblikda aks ettiradi, ya'ni hayotni estetik qadriyat sifatida ifodalaydi. Badiiy obrazning ichki (sub'ektiv) tomoni san'atkorning his-tuyg'ulari, mo'ljallari, baholashlari, kechinmalari, o'y-xayollari, orzu- umidlaridir. Tashqi dunyo taassurotlaridan yozuvchi ongida hosil bo'lgan bularning barchasi ijodkorning ichki dunyosini tashkil etib, u yaratgan badiiy obrazlarda o'z ifodasini topadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, obrazlilik adabiy vosita

<sup>2</sup> Теория литературы: Учебник/В. Е. Хализев.— 4-е изд., испр. и доп.— М.: Высш. шк., 2004.-405 с.



hisoblanib, u o'quvchi ongida majoziy tildan foydalangan holda, voqea-hodisani tasvirlashda hissiy tajribadan foydalanishga ishora qiladi. Samarali tasviriy til va nutq shakllaridan foydalangan holda yozuvchilar o'quvchilarning ruhiy kechinmalariga ta'sir o'tkazadilar. Shuning uchun ham obraz vizual yoki aqliy tasvirlab bilan cheklanib qolmasdan, balki jismoniy va ruhiy his-tuyg'ularni ham o'z ichiga oladi. Masalan, Nataniel Xotorn o'zining "The Scarlet Letter" asarida bosh qahramon Hester Prinning sevgi haqidagi hissiyotini o'quvchiga tushuntirish uchun obrazdan adabiy vosita sifatida foydalanadi. *"Love, whether newly born or aroused from a deathlike slumber, must always create sunshine, filling the heart so full of radiance, that it overflows upon the outward world."* Sevgi xuddiki yangi tug'ilgan yoki o'lim yoqasidan qaytgan kabi baxt va quvonch olib kelsin, qalbni shu qadar yorug'lik bilan nurga to'ldirsin, natijada u dunyolarga sig'masin. Xotorn tasviriy tildan samarali va o'ziga xos foydalangan holda o'quvchining his-tuyg'ularini junbushga keltiradi va bu ta'rifga ichki hissiy javob qaytarishga imkon beradi. Bu tasvir ushbu roman o'quvchilari uchun juda ta'sirli ekanligi aytiladi, chunki hikoyaning bosh qahramoni Hesterning sevgisi quvonch va baxtdan nari, qorong'ulik, andisha va yolg'izlikdan iborat edi. Shuningdek, odamlar ko'pincha obrazli tasvirlardan his-tuyg'ularni, fikrlar va g'oyalarni tavsiflovchi til orqali muloqot qilish vositasi sifatida foydalandilar. Quyidagi misollarda kundalik nutqda ishlatiladigan tasvirlardan misollar keltirilgan.

- The autumn leaves are a blanket on the ground.

*Kuzgi burglar yerda gilam misoli.*

- Her lips tasted as sweet as sugar.

*Uning lablari asaldek shirin edi.*

- His words felt like a dagger in my heart

*Uning so'zlari yuragimga hanjardek urildi.*

Ushbu fikrlarga qo'shimcha qilgan holda adabiyotshunos In.R.Diyanni o'zining "Literature, reading fiction, poetry and drama" asarida quyidagi fikrni keltiradi. "Imagery is the heart of literature, which allows the reader to become immersed in the story, the poem, or the play. It provides all of the "details of sight, sound, taste, smell, and touch" that elicit emotional responses from the reader, and that allow the reader to experience the settings, the characters, and the actions in the piece. Without imagery, literature would be dry and sterile, and would be hard-pressed to





touch the reader's imagination"<sup>3</sup> Obraz adabiyotning eng muhim bo'lagi bo'lib, u o'quvchiga hikoya, she'r yoki spektaklni chuqur anglagan holda sho'ng'ib ketish imkonini beradi. U o'quvchida asarga bo'lgan emotsional munosabatni, shuningdek asardagi voqealar kechadigan joy, qahramonlar va harakatni boshdan kechirish imkonini beradigan barcha "ko'rish, eshitish, ta'm va hid bilish, tegimish kabi tafsilotlarni taqdim etadi. Obrazsiz adabiyot zerikarli va samarasiz bo'lar edi va o'quvchi tasavvurga ta'sir o'tkazishi qiyinlashar edi.

Obrazlarni tahlil qilish ko'pincha she'r va hikoyalarda amalga oshiriladi. Lekin obrazlilik har qanday adabiy asarda mavjud bo'lib, unda tasvirlash ma'lum bir ahamiyatga ega. Agar o'quvchi ma'lum bir adabiy asarni tasvirlamoqchi bo'lsa u avvalambor asardagi turli xil nutq shakllarini masalan, metafora, o'xshatish, personifikatsiya, obraz va giperbola kabilarni tahlil qilishi kerak. Quyida muayyan obrazlarni tahlil qilishning 4 asosiy bosqichi keltirib o'tilgan:

1. Nutq shaklini, tasvir turlarini va ularning tavsifdagi ahamiyatini aniqlash.
2. Obraz turlari va tasvirning aniqliligini solishtirish va taqqoslash.
3. Muayyan nutq shakllarining ahamiyati, ularning ma'nolari va tasvirdagi ahamiyatini yakuniy mazmun bilan solishtirish va taqqoslash.
4. Tasvirni analiz qilish va uni kontekstda qanday ma'no kasb etishini o'rganish.

Shunday qilib obrazlilik odatda she'riyat bilan bo'g'liq bo'lsada, u har qanday adabiy badiiy asarda samarali adabiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Yozuvchilar o'z fikr va mulohazalari, o'ylari va hissiyotlarini o'quvchilar ongida chuqurroq va esda qolarli darajada yetkazish vositasi sifatida ulardan foydalanadilar. Obrazlilik o'quvchiga yozuvchi tasvirlayotgan voqea-hodisaning vizual tasvir va hissiy taassurotini ifoda qilish bilan birga yozuvchining his-tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradi. Qolaversa obrazlilik yozuvchining badiiy va majoziy tildagi mahoratini ko'rsatish vositasi bo'lib, o'quvchi uchun adabiy asarning mazmunini va zavqini oshiradi.

<sup>3</sup> DiYanni, R. (2007). Literature, reading fiction, poetry, and drama (Ashford Custom 6<sup>th</sup> ed.). New York: McGraw-Hill



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adabiyotshunoslik lug'ati D.Quronov, Z.Mamajonov, M. Sheraliyeva, Toshkent «Akademnashr» 2013
2. DiYanni, R. (2007). Literature, reading fiction, poetry, and drama (Ashford Custom 6<sup>th</sup> ed.). New York: McGraw-Hill
3. Хализев, В. Е. Теория литературы: Учебник/В. Е. Хализев.— 4-е изд., испр. и доп.— М.: Высш. шк., 2004.-405 с.
4. <https://literarydevices.net/imagery/>
5. <https://english-life.uz/badiiy-obraz-sanatning-bosh-xususiyati/>

